

## STRUKTUR TILSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA TIL–NUTQ MUNOSABATINING NAZARIY ASOSLARI

Akramjanova Gulandom Ibrohimjon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19425178>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada struktur tilshunoslikning shakllanishi, uning nazariy asoslari hamda til va nutq munosabatining ilmiy talqinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, til va nutq hodisalarining gnoseologik, ontologik va pragmatik jihatdan farqlanishi yoritiladi. Tadqiqot natijasida struktur va funksional yondashuvlarning zamonaviy tilshunoslik rivojidadagi ahamiyati asoslanadi.

**Kalit so‘zlar.** struktur tilshunoslik, til va nutq, funksional lingvistika, fonologiya, Praga lingvistik maktabi, til tizimi, lingvistik struktura, nominatsiya nazariyasi, funksional yondashuv.

**Аннотация** В данной статье анализируются процессы формирования структурной лингвистики, её теоретические основы, а также научные интерпретации соотношения языка и речи. Кроме того, рассматриваются различия между языком и речью с гносеологической, онтологической и прагматической точек зрения. В результате исследования обосновывается значение структурного и функционального подходов в развитии современной лингвистики.

**Ключевые слова** структурная лингвистика, язык и речь, функциональная лингвистика, фонология, Пражская лингвистическая школа, языковая система, лингвистическая структура, теория номинации, функциональный подход.

**Abstract** This article analyzes the formation of structural linguistics, its theoretical foundations, and scientific interpretations of the relationship between language and speech. It also examines the differences between language and speech phenomena from gnoseological, ontological, and pragmatic perspectives. The study substantiates the importance of structural and functional approaches in the development of modern linguistics.

**Keywords** structural linguistics, language and speech, functional linguistics, phonology, Prague linguistic school, language system, linguistic structure, nomination theory, functional approach.

**Kirish.** XX asr boshlaridan boshlab tilshunoslik fanida til hodisasini yangicha metodologik asosda o‘rganish zarurati yuzaga keldi. Ilgari tilshunoslik tadqiqotlarida asosiy e’tibor tilning tarixiy taraqqiyoti, kelib chiqishi va etimologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik tilni uning ichki tuzilishi, elementlararo bog‘lanishlari hamda funksional xususiyatlari orqali izohlash zarurati kuchaydi. Natijada tilni alohida birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan tizim sifatida o‘rganishga qaratilgan yangi ilmiy yo‘nalish — struktur tilshunoslik shakllandi. Struktur tilshunoslikning yuzaga kelishi umumiy ilmiy tafakkur taraqqiyoti bilan ham uzviy bog‘liqdir. XX asrning birinchi yarmida tabiiy fanlarda yuz bergan yirik kashfiyotlar, xususan, fizika va boshqa sohalarda murakkab tizimlarning ichki tuzilishini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar har qanday hodisa ichki elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim ekanligini ko‘rsatdi. Bu ilmiy qarashlar tilshunoslikka ham ta’sir ko‘rsatib, tilni ichki munosabatlarga ega bo‘lgan murakkab sistema sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Struktur tilshunoslikning shakllanishida I.A. Boduen de Kurtene va F. de Sossyur kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Boduen de Kurtene til birliklarini nutq jarayonida bajaradigan vazifasi asosida tahlil qilish zarurligini asoslab berdi hamda fonema nazariyasining shakllanishiga

zamin yaratdi. Uning qarashlari natijasida til birliklarining funksional xususiyatlarini o‘rganish lingvistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi.

F. de Sossyur esa tilni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, tilshunoslik fanida yangi nazariy yondashuvni shakllantirdi. U til va nutqni bir-biridan farqlab, tilni ijtimoiy va nisbatan barqaror tizim, nutqni esa individual va o‘zgaruvchan jarayon sifatida tavsifladi. Shuningdek, tilni sinxron va diaxron nuqtayi nazardan o‘rganish zarurligini asoslab, tilshunoslikda yangi tadqiqot yo‘nalishlarining rivojlanishiga turtki berdi. Bu qarashlar til tizimini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratdi. Keyinchalik struktur tilshunoslik asosida funksional lingvistika, glossematika hamda deskriptiv lingvistika kabi ilmiy yo‘nalishlar shakllandi. Ayniqsa, Praga lingvistik maktabi vakillari til birliklarini nafaqat struktur jihatdan, balki kommunikativ vazifasi nuqtayi nazaridan ham o‘rganish zarurligini ilgari surib, struktur va funksional yondashuvni uyg‘unlashtirdi. Bu esa tilning real nutq jarayonidagi faoliyatini chuqurroq o‘rganishga imkon berdi. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini o‘rganish faqat nazariy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki ta’lim jarayoni, ommaviy kommunikatsiya, tarjima amaliyoti hamda axborot texnologiyalari sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli tilning struktur va funksional xususiyatlarini chuqur o‘rganish hozirgi davr tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada struktur tilshunoslikning shakllanishi, uning nazariy asoslari hamda til va nutq o‘rtasidagi munosabatlarning ilmiy talqini yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tilni yaxlit tizim sifatida tushuntirishda struktur va funksional yondashuvlarning o‘rni hamda ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, til birliklarining tizim ichidagi o‘zaro bog‘lanishi va ularning kommunikativ jarayondagi vazifasi ilmiy tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari struktur tilshunoslik nazariyasining zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda tutgan o‘rnini aniqlash hamda kelgusida til tizimini chuqurroq o‘rganishga xizmat qilishi kutiladi.

**Metodologiya.** I.A. Boduen de Kurtene va uning o‘quvchisi N.V. Krushevskiy fonema haqidagi qarashlari bilan hozirgi struktur tilshunoslikdagi fonologik nazariyaga asos soldi. I.A. Boduen de Kurtene tilshunoslikka funkcionallik tamoyilini olib kirdi. Uning ma’nosi shuki, lingvistik vositalar nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. Bunday tamoyil fonetika sohasida fonema tushunchasining tug‘ilishiga olib keldi. U nutqiy jarayondagi fiziologik tavsifi bilan teng bo‘lmagan tovush haqida fikr yuritdi. Natijada fonema tushunchasiga asos soldi. F. de Sossyurning tilga elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida yondashuvi, nutqiy faoliyatning til va nutq o‘rtasidagi o‘zaro munosabatdan tashkil topgan butunlik deb e’tirof etishi, tilning sinxron va diaxron holatini aniqlab berishi va uning belgili tabiatini yoritishi struktur tilshunoslikning tug‘ilishiga zamin yaratadi. Nutqiy faoliyatni til va nutqqa bo‘lar ekan, bu bilan F. de Sossyur sotsiallikni individuallikdan, muhimni nomuhimdan, qo‘shimcha, tasodifiy holatlardan farqlanishini bayon qiladi. Uning fikricha, til — bu bir ijtimoiy jamoaga mansub bo‘lgan kishilarning nutqiy amaliyoti orqali to‘plangan bir xazinadir. Bu har bir til egasi ongida virtual mavjud bo‘lgan grammatik sistema, to‘g‘rirog‘i, u individlar yig‘indisi ongida yashaydi.

Tilshunoslik tarixida til va nutq o‘zaro farqlanishi bilan tilning turli sathlarida mazkur zidlanishning namoyon bo‘lishini tadqiq etishga e’tibor kuchaydi, buning natijasida til va nutq birliklarini ajratish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Struktur tilshunoslik vakillari F. de Sossyur izidan borib lisoniy faoliyatda til va nutq sintezini ko‘radilar.

V.Ya. Zvegintsev F. de Sossyurning til – nutq qarama-qarshiligi asosida mazkur hodisalarning quyidagi farqli belgilarini ko‘rsatadi:

Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo alohida nutqiy ko‘nikmalarda til sistemasi chegarasida ma’lum o‘zgarishga uchraydi.

- Nutq psixik hodisa, til sotsialdir.
- Nutq harakatchan, dinamik, til esa statiklikka intiladi.

- Nutq tarixiy, til axronik xususiyatga ega.
- Nutqiy elementlar o’rtasida sababiy tobelilik, til elementlari o’rtasida funksional tobelilik mavjud.

- Til lingvistik qonuniyatlarga bo’ysunadi, nutq esa noregulyar xarakterga ega.

- Nutq moddiy, til esa abstrakt sistema sifatida mavjud.

**Natijalar.** N.A. Slyusareva til va nutq qarama-qarshiligini uch xil yo’l bilan aniqlash mumkinligini ko’rsatadi:

- gnoseologik aniqlash,

- ontologik aniqlash,

- pragmatik aniqlash.

**Gnoseologik farqlanish:**

- umumiylik – xususiylik,

- abstraktlik – konkretlik,

- muhim – nomuhimlik,

- mohiyat – hodisa,

**Ontologik farqlanish:**

- psixik – fizik – fiziologik,

- sistema – tekst,

- paradigmatika – sintagmatika,

- invariantlilik – variantlilik,

- butun – qism,

**Pragmatik farqlanish:**

- sotsial – individual,

- uzual – akkozional,

- kod – xabar.

**Muhokama.** Struktur tilshunoslik rivojida Praga lingvistik maktabi muhim o’rin tutadi. Bu maktab 1926-yilda V. Matezius tashabbusi bilan tashkil etilgan Praga lingvistik to’garagi faoliyati bilan bog’liq. Uning nazariy qarashlari 1929-yilda e’lon qilingan tezislarda ifodalangan. Praga maktabining asosiy xususiyati strukturlik va funksionallikdir. Til birliklarining vazifasiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Funksiya bu yerda vazifa ma’nosida qo’llanadi. Praga strukturalizmi grammatika, fonologiya va morfonologiya masalalariga hamda tovushlarning ma’no farqlash funksiyasiga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, tilshunoslik bo’limlari qayta tasniflanib, lingvistik nominatsiya nazariyasi va sintagmatik usullar nazariyasi ilgari surildi. So’z, barqaror birikmalar, so’z turkumlari va so’z yasalishi nominatsiya nazariyasi doirasida o’rganilishi ta’kidlandi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari struktur tilshunoslik tilni o’zaro bog’langan elementlar tizimi sifatida o’rganishga asoslanganini ko’rsatdi. I.A. Boduen de Kurtene hamda F. de Sossyur tomonidan ilgari surilgan nazariyalar zamonaviy lingvistik qarashlarning shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatgan. Til va nutqning farqlanishi ularning ijtimoiy, psixologik va funksional jihatlarini chuqurroq o’rganishga imkon berdi. Praga lingvistik maktabi esa struktur va funksional yondashuvni uyg’unlashtirib, til birliklarining kommunikativ vazifasini aniqlashda muhim o’rin tutdi. Natijada, struktur va funksional tahlil tilshunoslikning zamonaviy rivojida muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur tadqiqot natijalari struktur tilshunoslikning til hodisasini o’zaro bog’langan elementlar tizimi sifatida o’rganishga asoslangan muhim ilmiy yo’nalish ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olib borilgan nazariy tahlillar til birliklarini alohida hodisa sifatida emas, balki yagona tizim tarkibidagi o’zaro munosabatlar orqali

o’rganish ilmiy jihatdan samaraliroq natijalar berishini ko’rsatdi. Til tizimining har bir elementi boshqa birliklar bilan funksional aloqada mavjud bo’lib, aynan shu bog’lanish tilning yaxlitligini ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida til va nutq hodisalari o’rtasidagi farqlarni gnoseologik, ontologik hamda pragmatik jihatdan tahlil qilish ularning tabiati va vazifasini chuqurroq anglash imkonini berdi. Til ijtimoiy va nisbatan barqaror tizim sifatida mavjud bo’lsa, nutq individual, dinamik va real kommunikativ jarayonda namoyon bo’ladigan hodisa ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, nutq jarayonida til birliklarining turli variantlarda qo’llanishi til tizimining moslashuvchanligi va yashovchanligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari I.A. Boduen de Kurtene tomonidan ilgari surilgan funkcionallik tamoyili hamda fonema nazariyasi zamonaviy fonologiya rivojida muhim o’rin tutishini ko’rsatdi. F. de Sossyur tomonidan ishlab chiqilgan til va nutqni ajratish konsepsiyasi esa tilshunoslikda sinxron va diaxron tadqiqot yo’nalishlarining shakllanishiga zamin yaratgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu nazariy yondashuvlar til tizimining ichki mexanizmlarini tushunishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Shuningdek, Praga lingvistik maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan struktur va funksional yondashuvning uyg’unligi til birliklarining kommunikativ jarayondagi vazifasini aniqlashda muhim ilmiy natijalar berdi. Ayniqsa, fonologiya va morfonologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar tovush birliklarining ma’no farqlash funksiyasini aniqlashda muhim metodologik asos yaratdi. Til birliklarining vazifasi va ularning nutqdagi qo’llanishi o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganish zamonaviy lingvistikaning muhim yo’nalishlaridan biri sifatida shakllanganini ko’rsatdi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, tilni faqat struktur jihatdan emas, balki funksional va kommunikativ jihatdan ham tahlil qilish zarur. Chunki til birliklarining haqiqiy mohiyati ularning nutq jarayonidagi faol ishtiroki orqali namoyon bo’ladi. Shu sababli, til tizimini o’rganishda struktur, funksional hamda pragmatik yondashuvlarning uyg’un holda qo’llanishi ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, struktur tilshunoslik va funksional yondashuv tilshunoslik fanining zamonaviy rivojlanishida muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilmoqda. Kelgusida til birliklarining kognitiv, kommunikativ va pragmatik jihatlarini chuqurroq tadqiq etish, shuningdek, til tizimining real nutq jarayonidagi namoyon bo’lish mexanizmlarini kengroq o’rganish tilshunoslik tadqiqotlarining dolzarb yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi. Bu esa tilni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali o’rganish imkonini kengaytiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2019. – 320 b.
2. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademyashr, 2020. – 280 b.
3. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent: Fan, 2018. – 240 b
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 416 b.
5. Mengliyev B. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 256 b.
6. Abdurahmonov G’. Umumiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2018. – 300 b
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari izohli lug’ati. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 480 b
8. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2021. – 272 b.
9. Yo’ldoshev B. Til tizimi va nutq faoliyati masalalari. – Toshkent: Akademyashr, 2022. – 248 b.
10. Mengliyev B., Xoliyorov O. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2023. – 300 b.